

RASMIY NUTQQA QO‘YILADIGAN TALABLAR

A.Shodiyeva

FarDU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Rasmiy nutqqa xos aniqlik, to‘liqlilik, logik izchillik, qisqalik kabi talablar haqida ma‘lumotlar haqida misollar keltirilgan va izohlangan. Shuningdek, ilmiy uslubga qiyoslangan holda tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Rasmiy nutq, ilmiy stil, aniqlik, obyektivlik, logik izchillik, neytrallik, qisqalik va to‘liqlik.

Rasmiy nutqda fikr ifodalash usuli ham boshqachadir. Uni badiiy yoki so‘zlashuv nutqlariga qiyoslasak, o‘rtadagi farq yanada aniqlanadi. Rasmiy nutq matnlari aniq ma‘lumotni logik tafakkur, mantiqiylik orqali bayon etadi. Ilmiy nutqqa qiyoslaydigan bo‘lsak ham umumiy jihatlarni, ham farqli jihatlarni ko‘rishimiz mumkin.

Ilmiy stilning sathlariga aniqlik, obyektivlik, logik izchillik, neytrallik, qisqalik va to‘liqlik kabi faktorlar kiradiki, bu faktorlar ko‘p hollarda ilmiy tekstning lingvistik belgilarida ko‘rinadi¹.

Rasmiy nutqda ham ilmiy stilga xos aniqlik, logik izchillik, qisqalik va to‘liqlik kabi talablar mavjud bo‘lib, bunda yuqorida M.Mukarramov ustoz ta‘kidlagan stil sathlariga kiruvchi faktorlar emas, balki to‘g‘ridan to‘g‘ri rasmiy nutqning ekstralingvistik belgisi sifatida qaraladi. Chunki stil sathi deb qaraydigan bo‘lsak, ifodalovchi birligi mavjud bo‘lishi kerak, masalan, fonetik sathning birligi fonema, leksik sathning birligi leks, sintaktik sathning birligi esa so‘z birikmasi va gap hisoblanadi. Aniqlik, logik izchillik, neytrallik, qisqalik va to‘liqlik kabi belgilarda ifodalovchi birligi mavjud emas.

Aniqlik rasmiy matnlarning asosiy belgisi xisoblanadi. Chunki aniq ma‘lumotsiz axborotning berilishi mumkin emas.

“Biz keyingi 3 yilda yo‘l qurilishiga 9,8 trillion so‘m, suv tarmoqlariga – 4,6 trillion so‘m, elektr tarmoqlariga – 18,2 trillion so‘m, tabiiy gaz ta‘minotiga – 1,2 trillion so‘m mablag‘ ajratdik.

Bu raqamlar – ushbu tarmoqlar uchun so‘nggi 10-15 yilda sarflangan mablag‘lardan bir necha barobar ko‘pdir”².

Logik izchillik fikrning bir-biriga mantiqiy bog‘lanishida, izchil bayon etilishida, rasmiy nutqda izchillikni yuzaga keltiruvchi maxsus o‘ziga xos so‘z va birikmalarning (-sh (-ish) maqsadidi, -sh (-ish) uchun, “...tayyorgarlikning borishi haqida”, “...qarorning bajarilishi to‘g‘risida”, “...yordam berish maqsadida”, “...qabul qilishingizni so‘rayman”) mavjudligida aks etadi.

MA‘LUMOTNOMA

Fermer xo‘jaligining

to‘rtburchak muhri.

Viloyat, tuman

fermer xo‘jaligi nomi.

¹ Назарий адабиётларда илмий стилнинг сатҳлари классификациясида бир хил қараш йўқ. Масалан, объективлик – абстрактлик, умумлашмаллик; аниқлик – тўғрилик, ҳаққонийлик; нейтраллик – образсизлик, “куруқлик” каби терминлар билан ҳам номланади: Ризель Э.Г. Полярные стилевые черты и их языковые воплощение. Ж. “Иност... языки в школе”, 1961, № 3; Головин Б.Н. Опыт лингвистической систематизации качеств речи. – В кн.: Вопросы стилистики (тезисы докладов на межвузовской научной конференции). Саратов, 1962; Кульгав М.П. Основные черты и синтаксические средства их реализации в современной немецкой научно-технической речи. АКД, 1964.

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисиغا Мурожаатнома”си. Тошкент. – 2020 йил 24 январь

Ma'lumotnomaning raqami
va berilgan sanasi.

Murod To'xtasinovich Olimov
2018 yildan beri Farg'ona tumanidagi

“Baraka” fermer xo'jaligida katta hisobchi lavozimida ishlamoqda.

Ma'lumotnoma tuman ijtimoiy ta'minot bo'limiga ko'rsatish uchun berildi.

Fermer xo'jaligi
boshqaruvi raisi
Kotibi
(muhr)

(imzo) O.Rahimov
(imzo) R.Kamolov

Qisqalik rasmiy nutqqa xos belgilardan biridir. Rasmiy bayon ortiqcha tasvirni, izohni talab etmaydi. Shuning uchun rasmiy bayonda narsa va hodisalar tasviri uchun o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, mublag'a kabi tasviriy vositalar qatnashmaydi.

TELEGRAMMA

FARG'ONA 12 KATTABOG' 18

SALIMOVGA YIGIRMA OLTINCHI DEKABRDA 123 REYS BILAN UCHAMAN
KUTIB OLING SAYYORA

100187 Toshkent 187 Sadaf ko'chasi 4-uy

To'liqlik rasmiy nutqning sintaktik belgilarida ko'rinadi. Ushbu nutqda aniq ma'lumotni berish uchun aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, kesim kabi bo'laklar tushirib qoldirilmaydi. Rasmiy nutqda to'liqsiz gaplar uchramayli. Bu, ayniqsa, rasmiy nutqning monologik shaklida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Qizlarimiz uchun alohida grantlar ham ajratiladi. Xotin-qizlar qo'mitasi ushbu grantlar asosida o'qitishga nomzodlarni tanlash va saralash mezonlarini ishlab chiqishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini ham optimallashtirish zarur. Biz bunda asosiy e'tiborni o'qishga kirish jarayonlarini soddalashtirishga, oliy o'quv yurtlarida chinakam bilim va tarbiya olishga qaratishimiz zarur.

Misol uchun, ona tili bo'yicha bilimni baholashning milliy test tizimini yaratish lozim. Yoshlar istalgan vaqtda imtihon topshirib, tegishli guvohnoma olsa, o'qishga kirayotgan paytda ona tili bo'yicha qayta sinovdan o'tishga hech qanday ehtiyoj qolmaydi.

Oliy ta'lim standartlari xorijiy tajriba asosida takomillashtiriladi, ta'lim yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlar qayta ko'rib chiqiladi. Mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar soni 2 barobar qisqartiriladi³.

“Hujjatlar matnini tuzishda turg'unlashgan, qoliplashgan so'z birikmalaridan ko'proq foydalanish lozim. Chunki qoliplashgan, yagona doimiy shaklga ega bo'lgan so'z tizimlari, iboralar, muhandislik psixologiyasi ma'lumotlariga ko'ra, boshqa so'z birikmalariga qaraganda 8-10 marta tez idrok qilinarkan. Buning ustiga qoliplashgan so'z birikmalari hujjatlarni tayyorlash va ulardan foydalanish jarayonlarini anchagina tezlashtirish imkonini beradi⁴. SHuning uchun o'zbek tilidagi rasmiy ish hujjatlarida deyarli qoliplangan birliklardan foydalaniladi. Masalan, buyruqda “...so'm oylik maosh bilan ...lavozimiga tayinlansin”, “...o'z xohishiga ko'ra ...lavozimidan ozod qilinsin”, yoki xizmat yozishmalarida “Sizga ...ni ma'lum qilamiz”, “...ga tashkilot kafolat beradi” kabi qoliplashgan tuzilmalar qo'llanishi mumkin.

³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига Мурожаатнома”си. Тошкент. – 2020 йил 24 январь

⁴ Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н. Иш юритиш. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2015. – 16-бет.

Qoliplash ham ekstralingvistikaning asosiy belgilaridan biridir. Rasmiy uslubda eng ko‘p qo‘llanuvchi qoliplangan ish hujjat turlaridan biri bu – arizadir. Arizalar muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat. “Ishga qabul qilishingizni so‘rayman” yoki “...ga ruxsat berishingizni so‘rayman” kabi qoliplashgan birliklardan foydalaniladi. Arizaning zaruriy qismlari joylashuvi, odatda, quyidagi shaklda beriladi:

Qaerga yoki kimga

Ariza yozuvchining turar joyi lavozimi, to‘liq nomi

ARIZA

Ariza matni (mazmuni)

Pova (agar zarur deb topilsa)

Sana (yil, kun, oy)

Imzo

I.O. va familyasi⁵.

⁵ Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н. Иш юритиш. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2015. – 119-бет.